

Date: 29th October-2025

**SUN'IY INTELLEKT VA HUQUQ TA'LIMI: O'QUV JARAYONIGA TA'SIRI VA
ETIK MASALALAR**

Qarshiyeva Uljonoy Shokir qizi

Qashqadaryo yuridik texnikumi o'qituvchisi

ukarshieva2516@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada sun'iy intellektning huquq ta'limidagi o'ri va ahamiyati hamda o'quv jarayonlariga ta'siri haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Sun'iy intellekt, talaba, yondashuv, texnologiya, yuridik soha, huquq, SI.

Kundan kunga o'zgarib, rivojlanib borayotgan dunyoda zamonaviy texnologiyalarning ya'ni sun'iy intellektning (SI) rivojlanishi barcha sohalarga, shu jumladan huquqiy ta'lim sohasiga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. So'nggi yillarda sun'iy intellekt ta'lim sohasida katta ahamiyat kasb etmoqda va keng foydalanilmoqda, xususan, talabalar bilimni baholash jarayonlarida. Bilamizki, huquqiy ta'lim chuquqr bilim, mantiqiy fikrlash va tanqidiy yondashuv talab qiladi. An'anaviy baholash usullari ya'ni, yozma imtixonlar va insholar samarali bo'lasa-da, ular ba'zan amaliy ko'nikmalar va tushunchalarni baholashda samarasiz va ortiqcha vaqt talab qiluvchi va ba'zan subyektivlik sababli adolatdan yiroqlashishi mumkin. Huquqiy ta'limda esa bunaqa muammolar ayniqsa dolzarbdur.

So'nggi o'n yillik ichida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi nafaqat sanoat, balki huquqiy soha uchun ham inqilobiy o'zgarishlar olib keldi. Dastlab xavotir va noaniqliklar bilan qaralgan bu texnologiya bugungi kunda yuristlar va yuridik xizmat ko'rsatish sohasida samaradorlik, aniqlik va innovatsion yechimlar yaratishda keng qo'llanilmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalari yuridik sohada doimiy takrorlanuvchi va vaqt talab qiluvchi vazifalarni avtomatlashtirish orqali huquqshunoslarning ish yukini sezilarli darajada kamaytirmoqda. Masalan, hujjatlarni ko'rib chiqish, shartnomalarni tayyorlash va tahlil qilish jarayonlari ilg'or sun'iy intellekt tizimlari yordamida ancha tez va samarali amalga oshirilmoqda. Thomson Reuters'ning 2024-yilgi "Professional kelajak" hisobotiga ko'ra, SI yordamida yuristlar haftasiga o'rtacha 4 soat vaqt tejashi mumkin va bu vaqt orqali ular yiliga \$100,000 ga teng miqdordagi qo'shimcha daromad topishi mumkin.

XX asrning boshlari va yarmida dunyo miqyosida elektron qurilmalarning vujudga kelishi, texnologiyalarning jadal rivojlanishi hayotdagi barcha sohalarda jalb eta va qo'llanila boshladi va shu kabi huquqshunoslar e'tiborini ham chetlab o'tmadi. Yurisprudensiya sohasiga yangi texnologiyalarni qo'llash bo'yicha tavsiya va takliflar informatika sohasida tub burilish yasagan birinchi elektron mashinalar yaratilgandan so'ng kiritila boshladi. Amerikada qonun sohasida yangi texnologiyalarni joriy etish bo'yicha bir qancha maqolalar tayyorlandi. Bularga misol tariqasida keltirishimiz mumkin, Li Levingerning "Yurimetriya – oldingi va keyingi qadam" maqolasidir. Bu maqola



Date: 29th October-2025



keyinchalik 1949-yilda Minnesota universiteti huquq jurnalida chop etilgan. Taxminan bir vaqtning o'zida Yevropada ham yurisprudensiya sohasida texnologiyalardan foydalanish bo'yicha yuqoridagi kabi bir qancha tadqiqotlar olib borildi. Angliyada 1958-yilda fikrlash jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish bo'yicha bo'lib o'tgan konferensiyada huquqshunos" Bu ma'ruzadan ko'zlangan asosiy maqsad, huquqiy ma'lumotlarga tezkor kirishni ta'minlash hamda advokatlarni qo'llab – quvvatlaydigan biror bir masalada huquqiy savollarga javob bera oladigan dasturiy va texnikaviy apparatlardan tashkil topgan tizim yaratilishini bashorat qildi. Demak, ko'rinib turibiki, yurisprudensiya sohasida sun'iy intellektning ta'siri kabi bu mavzuga aloqador ishlar bir qator amerikalik va yevropalik olimlar va huquqshunoslar tomonidan juda faol tarzda muhokama qilingan.

Sun'iy Intellekt ning huquqiy sohada qo'llanilishi juda keng va xilma-xildir. Misol uchun, Sun'iy Intellekt vositalari huquqiy hujjatlarni tezkor tahlil qilish, kerakli ma'lumotlarni qidirish va shartnomalarni tekshirishda katta yordam beradi. Bu esa huquqshunoslarning ishini ancha yengillashtiradi va samaradorligini oshiradi.

Bundan tashqari, Sun'iy Intellekt o'tmishdagi ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish va ular asosida sudlardagi ishlarning qanday yakunlanishi mumkinligini bashorat qilishda ham qo'l keladi. Bu huquqshunoslarga o'z mijozlariga yanada aniqroq va ishonchliroq maslahatlar berishda yaqindan yordam beradi.

Sun'iy Intellektning huquqiy xizmatlarni avtomatlashtirishdagi o'rni ham beqiyosdir. U oddiy huquqiy hujjatlarni yaratish, mijozlarning savollariga javob berish va boshqa ko'plab takroriy vazifalarni bajarishni o'z zimmasiga olishi mumkin. Natijada, huquqshunoslar o'z vaqt va kuchlarini yanada murakkab va muhim ishlarga sarflash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Kelajakda Sun'iy Intellekt texnologiyalarining huquqiy sohadagi qo'llanilishi yanada kengayishi va chuqurlashishi kutilmoqda. Ehtimol, Sun'iy Intellekt tizimlarining imkoniyatlari shunchalik oshib ketadiki, ular hatto ba'zi huquqiy masalalarni mustaqil ravishda hal qila oladigan darajaga yetishi mumkin. Albatta, bu hali uzoq kelajakning ishi, lekin Sun'iy Intellekt ning huquq sohasidagi taraqqiyoti shubhasiz davom etadi.

Shu bilan birga, Sun'iy Intellekt ning huquqiy sohada qo'llanilishi ba'zi muhim etik va huquqiy muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Misol uchun, Sun'iy Intellekt tizimlarida ishlatilayotgan ma'lumotlarning xavfsizligi va maxfiyligi, shuningdek ularning qarorlar qabul qilish jarayonidagi shaffofligi va hisobdorligi masalalari jiddiy e'tiborni talab qiladi. Bundan tashqari, Sun'iy Intellekt tizimlarining keng qo'llanilishi ba'zi huquqshunoslarning ish o'rinlarini yo'qotishiga olib kelishi ham mumkin.

uridik amaliyotda SI vositalari qo'llanilganda, uning natijasi ishonchliligi va aniqligi muhim o'rin tutadi. Agar tizimdagi xatolik yoki mantiqiy nuqsonlar sababli noto'g'ri huquqiy maslahat berilsa, javobgarlikni aniqlash murakkab bo'lishi mumkin. Shu boisdan, huquqiy tizim mas'ullari va SI mutaxassisleri o'rtasida aniq hamkorlik sharti bilan yangi kodekslar va standartlar ishlab chiqish zarurati kelib chiqmoqda. Sun'iy intellektning yuridik sohada qo'llanilishi bilan bog'liq yana bir dolzarb masala – axloqiy tamoyillar va shaffoflikni ta'minlashdir.

Date: 29th October-2025



Thomson Reuters nashri tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma ko'ra, ishtirokchilarning 43% iza SI natijalari sifati va uning amal qilish prinsiplariga ishonchsizlik bildirgan bo'lsa, 37% iza esa shaxsiy va maxfiy ma'lumotlar bo'yicha SI xavfsiz emasligini ta'kidlab o'tgan. Bu esa, sun'iy intellektni joriy etishdan oldin uning inson xavfsizligi va ichki siyosat kabi masalalarga ta'sirini chuqur tahlil qilish kerakligini bildiradi. Texnologiya rivojlanishi bilan birga, huquqshunoslar SI'ni samarali qo'llash uchun sanoat darajasida yagona ishonchli kodekslar va sertifikatlash tizimlarini joriy etishni talab qilmoqda. Bu jarayon SI vositalarining ishonchliligi, obyektivligi va adolatli qo'llanishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, kelajakda yuridik amaliyotda muhim rol o'ynaydi.

So'nggi yillarda O'zbekiston ham raqamli transformatsiyalar jarayoniga kirishdi. Yuridik sohada raqamlashtirish, elektron hujjat aylanishi va onlayn huquqiy xizmat tizimlarini joriy etish orqali samaradorlik oshirilmoqda. SI imkoniyatlari ushbu jarayonlarni yanada takomillashtirish va avtomatlashtirish, shuningdek, keng ommaga sifatli huquqiy maslahatlar taqdim etishda hal qiluvchi omil sifatida qaralmoqda. Yuridik amaliyotda sun'iy intellekt qo'llanilishini qo'llab-quvvatlash uchun O'zbekistonda bir qator innovatsion loyihalar amalga oshirilmoqda. Yuqori texnologiyali kompaniyalar va universitetlar hamkorligida yangi SI tizimlari ishlab chiqilmoqda, bu esa yuridik amaliyotni avtomatlashtirish va mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatini oshirishga qaratilgan. Kelajak strategiyalarida aniq me'yorlar va inson nazorati asosida SI'ni joriy etish, hamkorlikda normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish muhim o'rin tutadi.

Sun'iy intellekt hozirgi zamon axborot texnologiyalari rivojlanishiga qanchalik mos bo'lsa ya'ni u qanchalik murakkab va turli xil darajadagi huquqiy vazifalarni bajarish imkoniyatiga ega bo'lsa va undan yurisprudensiya sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar, advokatlar, shuningdek sudyalalar hamda boshqa davlat idoralari, biznes vakillari tomonidan ko'proq foydalaniladi. Hozirgi kunda shiddat bilan o'zgarib borayotgan zamonda, jamiyat tubdan o'zgarmogda hamda qonun chiqaruvchi, ijro etuvchilar tomonidan chiqarilayotgan qonunlar doimiy ravishda yangi sharoitlarga moslashishga harakat qilib, yangi huquq normalari bilan to'ldirilmoqda. Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solishda, avvalo, axloqiy shartlar va etikaning o'rni beqiyosdir. Etika huquq sohasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ko'plab huquqiy normalar, qarorlar axloqiy muammolarni o'rganish, tahlil etish va idrok etishdan kelib chiqadi. Hozirgi kunga kelib sun'iy intellekt jamiyatda sodir etiladigan voqelikka kirgan, jamiyatga allaqachon o'z ta'sirini o'tkazgan. Buning natijasida sun'iy intellekt bilan yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish zarurligini anglatadi. Demak, sun'iy intellekt mavjud bo'lgan va ta'sirini o'tkazadigan munosabatlarni huquqiy tartibga solishda, zarur bo'lgan norma va qonunlarni ishlab chiqishda sun'iy intellekt sohasida axloqiy me'yorlarni ishlab chiqish va joriy etish hamda shakllantirish muhim hisoblanadi. Bu kabi ishlab chiqilgan sun'iy intellektni tartibga solish bo'yicha axloqiy me'zonlar sun'iy intellektning

Date: 29th October-2025

robotlashtirilgan modellariga ham, Internet tarmog'ida hamda virtual mavjud bo'lgan modellariga ham tegishli.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt huquq sohasida katta imkoniyatlarga ega va u allaqachon sohamizni sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Kelajakda Sun'iy Intellektning huquqiy sohadagi qo'llanilishi yanada kengayib, sohaning samaradorligi va sifatini oshirishga xizmat qilishi shubhasizdir. Shu bilan birga, Sun'iy Intellektning tatbigi bilan bog'liq barcha etik va huquqiy muammolarni o'z vaqtida va to'g'ri hal qilish, shuningdek jarayonning barcha ishtirokchilari o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish juda muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rakhmonov, A. (2021). "Sun'iy intellekt va ta'lim: yangi imkoniyatlar". Ta'lim va Innovatsiyalar.
2. Mustafayev, D. (2022). "Huquqiy ta'limda sun'iy intellektning o'rni". Huquq va Jamiyat.
3. AIning ta'rifi: asosiy imkoniyatlar va ilmiy fanlar. Sun'iy intellekt bo'yicha yuqori darajadagi ekspertlar guruhi. Yevropa Komissiyasi,
4. Gulyamov S., Rustambekovich R. I. Code of Ethics for the Responsible Use of AI (Chatbots) in Science, Education and Professional Activities //Uzbek Journal of Law and Digital Policy. – 2023. – T. 1. – №. 3.
5. Kompyuter fanlari va huquq. Ilg'or kurs. Ed. B. Niblett tomonidan. Kembrij: Kembrij universiteti nashriyoti. 1980. 232 b.